

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
O.SH.Bazarov
_____ 2024 yil
Ro'yhatga olindi № 05/03/001
"21" iyun 2024 yil

BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQA TORTISH

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi: 810000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi: 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)

Qarshi 2024-yil

Fan/modul kodi BHST2604	O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish	60	60	120
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi – buxgalteriya hisobining ob'ektlari va sub'ektlari, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, dastlabki hujjatlarni yuritish, ishlab chiqarish xarajatlarini guruhlash, tannarxni aniqlash, sotish baholarini shakllantirish va ularni hisobga olish, amaldagi soliqlarning mohiyati, zarurligi va funksiyalari, soliq tizimi va soliqlarning guruhlanishi, qishloq xo'jalik korxonalarining soliq tizimi, soliqqa tortish usullari haqida zarur bo'lgan bilimlarni berish.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari –talabalarga buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini, mahsulot tannarxini aniqlash tartibini hisobga olish va uning natijalari asosida hisobot tuzish to'g'risidagi bilimlarni, soliq tizimi va soliqlarning guruhlanishi, soliq elementlari va qishloq xo'jalik korxonalari to'laydigan soliqlar hamda ularni hisoblash tartibini, soliq hisobotlarini topshirish va soliqlarni to'lash muddatlarini o'rganishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1- modul. Buxgalteriya hisobi</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. “Buxgalteriya hisobi” faniga kirish</p> <p>Xo'jalik hisobi to'g'risida umumiy tushuncha va uning turlari. Hisobda qo'llaniladigan o'lchovlar. Buxgalteriya hisobining maqsadi, vazifalari va funksiyalari. Buxgalteriya hisobi sub'ektlari va ob'ektlari. Buxgalteriya hisobining printsiplari.</p> <p>Buxgalteriya hisobining predmeti, aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, moliyaviy natijalar to'g'risida tushuncha.</p> <p>Xo'jalik jarayonlari bosqichlari va ularning mazmuni. Asosiy xo'jalik jarayonlari.</p>			

2-mavzu. “Buxgalteriya hisobi” fanining usullari va ularning mazmuni

Buxgalteriya hisobining metodi. Hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiyalashtirishning normativ-huquqiy asoslari. Hujjatlashtirish haqida tushuncha. Hujjatning majburiy rekvizitlari. Hujjatlarni rasmiylashtirishda qo'yiladigan talablar. Hujjatlarning turkumlanishi. Hujjatlarning aylanishini tashkil etish. Inventarizatsiya to'g'risida tushuncha, uning ahamiyati va turlari. Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish tartibi. Inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi. Baholash usulining mazmuni. Kalkulyatsiyaning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kalkulyatsiya turlari.

Buxgalteriya balansining tuzilishi, mazmuni va ahamiyati. Balans moddalari va bo'limlari. Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Buxgalteriya hisobining schyotlari haqida tushuncha va uning tuzilishi, buxgalteriya hisobi schyotlarining turkumlanishi. Buxgalteriya hisobining schyotlari rejasi. Ikkiyoqlama yozuv va uning ahamiyati.

3-mavzu. Buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisob siyosati

Buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisob siyosatini ishlab chiqishning normativ-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni va uning ahamiyati. Buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. Buxgalteriya hisobini tashkil etishni amalga oshirish. Hisob siyosatini ishlab chiqish bosqichlari. Hisobi siyosatining uslubiy tashkiliy va texnik jihatlari.

4-mavzu. Pul mablag'lari hisobi

Kassa muomalalarining mazmuni va normativ huquqiy asoslari. Kassa muomalalarini tashkil etish va hujjatlashtirish. Kassa muomalalarini hisobga olish. Kassa muomalalari inventarizatsiyasini tashkil etish va o'tkazish.

Hisob-kitob, valyuta va maxsus schyotlardagi pul mablag'lari hisobini tashkil etish. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning normativ-huquqiy tartibga solish tizimi. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari. Hisob-kitob, valyuta va maxsus schyotlardagi pul mablag'larini hisobga olish.

5-mavzu. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi

Materiallarning iqtisodiy mohiyati, baholanishi, turkumlanishi va normativ-huquqiy asoslari. Materiallarning dastlabki va analitik hisobi. Materiallarning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi. Materiallar inventarizatsiyasi.

6-mavzu. Xarajatlar va tayyor mahsulotlar hisobi

Xarajatlar haqida tushuncha va ularni tavsiflanishi. Ishlab chiqarish xarajatlari mohiyati va huquqiy-me'yoriy asoslari. Xarajat moddalari. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi tannarxini kalkulyatsiya qilish. Yordamchi ishlab chiqarish va umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi. Davr xarajatlari hisobi.

Tayyor mahsulotlar va tovarlarning iqtisodiy mazmuni va normativ-huquqiy asoslari. Tayyor mahsulotlar va tovarlar hisobini tashkil etish va hujjatlashtirish. Tayyor mahsulotlar va tovarlarni hisobga olish.

7-mavzu. Uzoq muddatli aktivlar hisobi

Asosiy vositalarning iqtisodiy mazmuni, baholanishi, turkumlanishi va normativ-huquqiy asoslari. Asosiy vositalar kirimi, harakati va chiqimini hujjatlashtirish va hisobga olish. Asosiy vositalarning eskirishi, qayta baholanishi va ta'mirlarishi hisobi. Asosiy vositalar inventarizatsiyasi.

Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mohiyati, baholanishi, turkumlanishi va normativ-huquqiy asoslari. Nomoddiy aktivlar kirimi, harakati va chiqimini hujjatlashtirish va hisobga olish. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash.

8-mavzu. Hisob-kitob operatsiyalari hisobi

Mol etkazib beruvchi va pudratchilar, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar iqtisodiy mazmuni va hisobini tashkil etish. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobini hujjatlashtirish. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish.

Soliqlarning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati va normativ-huquqiy asoslari. Soliqlar hisobini tashkil etish va hujjatlashtirish. Soliqlarni hisobga olish.

Turli debitor va kreditor qarzar haqida tushuncha. Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, to'lov va da'vo muddatlari. Turli debitor va kreditor bilan hisob-kitoblar hisobini tashkil etish va hujjatlashtirish. Turli debitor va kreditor bilan hisob-kitoblarni hisobga olish.

Kreditning iqtisodiy mazmuni va normativ-huquqiy asoslari. Kreditning ahamiyati va hisobini tashkil etish. Kreditning olish tartibi va hujjatlashtirilishi. Kredit muomalalarini hisobga olish.

9-mavzu. Xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobi

Mehnat va unga haq to'lash, hisobdor shaxslar bilash hisob-kitoblarning mazmuni hamda normativ-huquqiy asoslari. Mehnatga haq to'lash shakllari. Mehnat va unga haq to'lash hamda hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar

hisobini tashkil etish. Mehnat va unga haq to'lash hamda Mehnat va unga haq to'lash hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobini hujjatlashtirish. Mehnat va unga haq to'lash hamda hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarning analitik va sintetik hisobi.

10-mavzu. Xususiy kapital hisobi

Xususiy kapital iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Xususiy kapital tarkibi va normativ-huquqiy asoslari. Xususiy kapital hisobini tashkil etish. Ta'sis hujjatlari. Ustav kapitalini shakllantirish va hisobini tashkil etish. Qo'shilgan kapital hisobi. Zaxira kapitali hisobi. Taqsimlanmagan foyda hisobi.

11-mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi. Moliyaviy hisobot

Moliyaviy natijalar iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy natijalar hisobining normativ-huquqiy asoslari. Daromadlar va xarajatlar haqida tushuncha. Daromad va xarajatlarni tan olish. Daromadlar va xarajatlar hisobi. Yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Moliyaviy hisobotning iqtisodiy mazmuni va normativ-huquqiy asoslari. Moliyaviy hisobotni tuzishining tamoyillari va tarkibi. Moliyaviy hisobotning hisobot davri. Moliyaviy hisobotni taqdim etish va e'lon qilish.

2-modul. Soliqqa tortish

12-mavzu. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimi

Soliq tushunchasi, uning belgilari va iqtisodiy mohiyati. Fanning predmeti va vazifalari. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi va funktsiyalari. O'zbekistonning soliqqa tortish tizimi. Soliq elementlari. Soliq tizimi tushunchasi. Soliq munosabatlarining sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari. Soliq nazoratining asoslari. Soliq tekshiruvlari va ularning shakllari.

13-mavzu. Foyda solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i.

Aktsiz solig'i

Foyda solig'i to'lovchilari. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza. Imtiyozlar va ularning turlari. Soliq stavkalari. Soliq davri. Hisobot davri. Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi. Soliqni to'lash tartibi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan bazani belgilash. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar. Soliq stavkalari. Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi. Soliqni to'lash tartibi.

Aktsiz solig'ini to'lovchilari. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan bazani aniqlash. Soliq stavkalari. Soliq davri. Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi. Soliqni to'lash tartibi.

14-mavzu. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va yer solig'i.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar. Mol-mulk solig'ini to'lovchi korxonalar. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza. Soliq imtiyozlari. Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish hamda to'lash tartibi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilar. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza. Imtiyozlar. Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarni taqdim etish hamda to'lash tartibi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilar. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi. Imtiyozlar. Soliq stavkalari. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarni taqdim etish hamda to'lash tartibi. Ijtimoiy soliq.

15-mavzu. Soddalashtirilgan soliqlar

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer solig'i. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer solig'ini soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer solig'ini hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to'lash tartibi.

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar. Soliq solish ob'ekti. Soliq solinadigan baza. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to'lash tartibi.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha kursatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Buxgalteriya hisobi" faniga kirish.
2. "Buxgalteriya hisobi" fanining usullari va ularning mazmuni.
3. Buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisob siyosati.
4. Pul mablag'lari hisobi.
5. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi.
6. Xarajatlar va tayyor mahsulotlar hisobi.
7. Uzoq muddatli aktivlar hisobi/
8. Hisob-kitob operatsiyalari hisobi.
9. Xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobi.

10. Xususiy kapital hisobi.
11. Moliyaviy natijalar hisobi. Moliyaviy hisobot.
12. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimi.
13. Foyda solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i. Aktsiz solig'i.
14. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va yer solig'i. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
15. Soddalashtirilgan soliqlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Buxgalteriya hisobi" fanining predmeti haqida tushuncha.
2. "Buxgalteriya hisobi" fanining usullari va ularning mazmuni.
3. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya.
4. Baholash va kalkulyatsiya.
5. Buxgalteriya balansi haqida tushuncha.
6. Buxgalteriya hisobi schyotlari va ikki yoqlama yozuv.
7. Buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisob siyosati.
8. Kassa muomalalari hisobi.
9. Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larini hisobga olish.
10. Valyuta schyotidagi pul mablag'lari hisobi/
11. Maxsus schyotlardagi pul mablag'larini hisobga olish.
12. Materiallar hisobi.
13. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi.
14. Tayyor mahsulotlar va tovarlar hisobi.
15. Asosiy vositalar hisobi.
16. Nomoddiy aktivlar hisobi.
17. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi.
18. Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar hisobi.
19. Kredit operatsiyalari hisobi.
20. Mehnat va unga haq to'lashni hisobga olish.
21. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish.
22. Xususiy kapital hisobi.
23. Moliyaviy natijalar hisobi.

	<p>24. Moliyaviy hisobot.</p> <p>25. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimi.</p> <p>26. Foyda solig'i.</p> <p>27. Qo'shilgan qiymat solig'i.</p> <p>28. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i.</p> <p>29. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.</p> <p>30. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer solig'i.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • asosiy buxgalteriya hisobi tushunchalari va ularning maqsadi to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • buxgalteriya hisobining ob'ekti, usullari, xo'jalik mablag'lari va uning tashkil topish manbalari, aktivlar va passivlarni baholash, buxgalteriya balansi, schyotlar rejasi, inventarizatsiya, kalkulyatsiya va moliyaviy hisobot shakllariga oid bilim va tushunchalarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • pul mablag'lari, valyuta operatsiyalari, mehnat va ish haqi, tovar-moddiy zahiralari, investitsiyalar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ustama xarajatlar, tayyor mahsulot, xususiy kapital, majburiyatlar, moliyaviy natijalarni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish kabi <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan hisobga jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>1. Asosiy adabiyotlar</p>

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. –T.: 2016 yil 13 aprel (yangi tahrirdagi).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2020 y. Qonunchilik palatasi tomonidan 30.12.2019 yil qabul qilingan O’RQ-599.
3. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O’quv qo’llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
4. Isroilov B.I., Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik.- Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240-b.
5. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
6. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. T.: “Yangi asr avlodi”, 2004. 279 b.
7. D.E. Norbekov, A.N. To’rayev, Sh.Sh. Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanm. - T.:Iqtisod-moliya, 2019. 332 b.
8. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. —T.: Fan va texnologiyalar, 2003. -247 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 485 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-48 b.
5. Karimov A., Muqumov Z., Tulayev M. Kurbanbayev J., Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -192 b.

Axborot manbaalari

- www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal.
- www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
- www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
- www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qumitasi rasmiy sayti.

	<p>www.ziyonet.uz - Axborot – ta’lim portal.</p> <p>www.sciencedirect.com. –ommabop ilmiy jurnallar sayti.</p> <p>www.scopus.com. - ommabop ilmiy jurnallar sayti.</p>
7.	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul:</p> <p>Ravshanov Alisher Bobaqulovich-QarMII, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası katta o‘qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Egamberdiyeva Salima Raimovna-QarMII, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p> <p>2. Ruziyev Zafar Ikromovich-Qarshi MII, “Moliya” kafedrası kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p>

